

**TURKIY ADABIYOTLARDA ISRO VA ME'ROJ KECHASINING  
BAYON ETILISHI**

ОПИСАНИЕ НОЧИ ИСРЫ И МИРАДЖА В ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ  
THE REPRESENTATION OF THE NIGHT OF ISRA AND MIRAJ IN  
TURKIC LITERATURE

*Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna*

*Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi*

[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

*Telegram:91-342-45-31*

*Мухитдинова Гулбахор Рустамджановна*

*учительница Наманганского государственного университета*

[Тел:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

*Телеграм:91-342-45-31*

*Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna*

*Namangan State University teacher*

[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

*Telegram:91-342-45-31*

**ANNOTATSIYA**

Islom dini tarixida Payg'ambar Muhammad alayhissalom hayotlari, ul zoti sharifning bosib o'tgan mashaqqatli yo'llari, dinni targ'ib qilish bobida amalga oshirgan mislsiz qahramonliklari alohida o'rin tutadi. Nabiy alayhissalomning tug'ilgan vaqtlaridan boshlab to vafot etgan kunlariga qadar bo'lib o'tgan barcha voqea-hodisalar haqida o'sha zamonning o'zidayoq ko'plab manbalar yozilgan. Arab adabiyotshunoslari, tarixchi olimlari, u kishining yonlarida yurgan maslakdoshlari - sahobalari ham bunday muhim vazifani bajarish uchun astoydil harakat qilganlar. Ana shunday manbalar orqali bizgacha islom dinining vujudga kelishi, mazkur din elchisi Rasuli akramning hayot yo'llari to'g'risida ko'plab qimmatbaho ma'lumotlar yetib kelgan.

Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad hozirgi avlod vakillariga islom dini, uning Payg'ambari Muhammad alayhissalom hayotlari va bosib o'tgan ibratli yo'llari, xususan, ul zoti sharifning Payg'ambarlik davrlarida sodir bo'lgan, butun dunyo olimlari va bashariyatning hayratiga sabab bo'lgan juda muhim voqea – Isro va Me'roj kechasi voqealari haqida to'liq va batafsil ma'lumot berishdir. Albatta mazkur voqea to'g'risida ko'p manbalar keltirilgan. Biroq namanganlik shoir Xilvatiyning bu haqdagi qarashlari hech bir manbada aks ettirilmagan. Xilvatiy o'zining "Mavludi sharif" asarida islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalom hayotlarini turli hikoyalar asosida bayon etgan. Eng asosiysi, kitobda aynan Isro va Me'roj kechasi uchun alohida bir katta bob ajratilgan. Ilmiy tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy vazifa esa kelajak avlod vakillariga XX asr o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodi, xususan, Namangan adabiy muhitida barakali ijod qilgan jadidlardan biri Xilvatiy ijodi haqida batafsil ma'lumot berishdan iboratdir. Maqolada mazkur asar qiyosiy, badiiy, tarixiy tahlil qilish metodlari asosida o'rganilgan. XX

asr o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodi, xususan, Namangan adabiy muhitida ijod qilgan buyuk o'zbek shoirlarining bizga adabiy meros sifatida qoldirgan nodir asarlarini o'rganish natijasida qo'lyozma va toshbosma manbalar tahlil qilinadi hamda ushbu manbalar asosida yangidan-yangi tadqiqotlar olib boriladi. Natijada esa bugungi kun yosh avlod vakillarining mumtoz adabiyotimizga bo'lgan qiziqishlari, shuningdek, islom dini targ'ibotchisi Muhammad alayhissalomga bo'lgan hurmat va ehtiromlari yanada ortadi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad, oyat, Isro, Me'roj, mavlud, Xilvatiy, namoz, osmon, Payg'ambar, olam.

### **АННОТАЦИЯ**

В истории исламской религии жизнь Пророка Мухамеда, мир ему, трудные путешествия его семьи и его беспримерный героизм в распространении религии занимают особое место. Во многих источниках было написано обо всех событиях, произошедших со времени рождения Пророка, мир ему, до дней его смерти. Арабские литературоведы, историки и его профессиональные коллеги – соратники также усердно работали над выполнением столь важной задачи. Благодаря таким источникам мы получили много ценной информации о зарождении ислама, жизни Расули Акрама, посланника этой религии.

Основная цель написания данной статьи – информирование представителей нынешнего поколения об исламе, жизни и образцовом пути его Пророка Мухамеда, особенно о тех, которые произошли во времена пророчества Зати Шарифа, вызвавшие восхищение ученых и человечества всего мира. Очень важное событие – дать полную и подробную информацию о событиях ночи Исры и Мираджа. Конечно, существует множество источников об этом событии. Однако взгляды наманганского поэта Хилвати по этому поводу не отражены ни в одном источнике. В своём произведении “Мавлюди шариф” Хилвати рассказал о жизни Пророка Мухамеда, мир ему, основываясь на различных историях. Самое главное, что в книге есть отдельная огромная глава, посвящённая ночи Исры и Мираджа. Основная задача научного исследования – предоставить подрастающему поколению подробную информацию о творчестве представителей узбекской классической литературы XX века, в частности, о творчестве Хилвати, одного из самых хороших авторов литературной среде Узбекистана. В статье указывается, что данное произведение изучается на основе методов сравнительного, художественного и исторического анализа. Творчество представителей узбекской классической литературы XX века, в частности великих узбекских поэтов, творивших в литературной среде Намангана имеет очень важное место. В результате изучения его редких произведений, оставшихся нам как литературное наследие, анализируются рукописные и литографические источники и на основе этих источников проводятся новые исследования. В результате интерес сегодняшнего молодого поколения к нашей классической литературе, а также их уважение к Проповеднику ислама Мухамеду алейхисселяму ещё больше возрастут.

**Ключевые слова:** Мухамед, аят, Исра, Мирадж, мавлюд, Хилвати, молитва, небо, Пророк, мир.

## ABSTRACT

In the history of Islam, the life of Prophet Muhammad (peace be upon him), his enduring perseverance, and his extraordinary efforts to convey and establish the faith hold a prominent and sacred position. From his birth to his passing, every event in his life was meticulously recorded, even during his own time. Arab literary scholars, historians, and the Prophet's close companions—the Sahabah—dedicated themselves earnestly to this vital task. These sources have provided invaluable insights into the establishment of Islam and into the exemplary life of its Prophet.

The primary aim of this article is to share deeper understanding of Islam, the life of Prophet Muhammad (peace be upon him), and, specifically, the very essential and miraculous events: the Night of Isra and Mi'raj. This extraordinary occurrence, which has left scholars and humanity in awe for generations, is explored in detail. While many sources discuss the Night of Isra and Mi'raj, the unique perspectives of Khilvati, a poet from Namangan, remain absent from most accounts. Khilvati, in his work *Mavludi Sharif*, narrates the life of Prophet Muhammad (peace be upon him) through a collection of stories. Most notably, he devotes an entire chapter to the Night of Isra and Mi'raj, setting it apart as a significant subject of his work. The primary objective of this scholarly exploration is to familiarize future generations with the contributions of early 20th-century Uzbek classical literature, particularly the vibrant literary milieu of Namangan. Among the prominent figures of this environment is Khilvati, whose literary legacy deserves closer examination. This study employs comparative, literary, and historical methodologies to analyze Khilvati's writings, including manuscript and lithographic sources. Through an intense study of such works, new doors for researching are emerging. This enriches our understanding of Uzbek classical literature and its intricate connection with Islamic values and traditions. These investigations aim to inspire today's youth to appreciate the rich legacy of classical literature and to dive deeper to the life of Prophet Muhammad (peace be upon him) as a central figure of Islam. By highlighting such contributions, this article seeks to instill a renewed respect and admiration for the religious and cultural heritage preserved within these literary treasures.

**Keywords:** Muhamed, verse, Isra, Miraj, Mavlud, Khilvati, prayer, heaven, Prophet, world.

## KIRISH

Islom dinining dunyo miqiyosida targ'ib etilishi va tarqalishiga sababchi bo'lgan inson, Allohning so'nggi elchisi Muhammad (s.a.v.)ning hayotlarida sodir bo'lgan ajabtovur voqea-hodisalar, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan mo'jizalar to'g'risida ko'plab tarixiy ma'lumotlarga duch kelamiz. Manbalarda Isro va Me'roj kechasi voqealari hayratlanarli tarzda bayon etiladi. Masalan, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasining 1-jildida mazkur tushunchalar quyidagicha izohlanadi: Isro va Me'roj — islom tarixida Muhammad (s.a.v.) ning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayri (Isro) hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishi (Me'roj). Bu haqda Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda keng ma'lumotlar berilgan. Bu hodisa ilohiy mo'jizalar turiga kirgani uchun moddiylik va aqliy dalillar bilan chegaralanuvchi kishilar uni inkor etadilar. Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad (s.a.v.) Jabroil (a.s) boshchiligida tunda ko'p yillik masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytganlar. Jumladan, yetti qavat

osmon oraliqlarida o‘zlaridan oldingi o‘tgan yirik Payg‘ambarlar bilan muloqotda bo‘lganlar. Jannat va do‘zaxni tomosha qilganlar. 5 vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko‘pgina asarlar mavjud. Isro va Me‘roj kechasi islom olamida diniy bayram sifatida har yili hijriy rajab oyining 27-kechasida nishonlanadi [Aminov, 2004; 258]. Qur‘oni karimning Isro surasida “(O‘z) bandasi (Muhammad)ni, unga mo‘jizalarimizdan ko‘rsatish uchun Masjidi Haromdan Biz atrofini barakotli qilgan Masjidi Aqsoga tunda sayr qildirgan Zot barcha nuqsonlardan pokdir” deya e’tirof etilgan [Shayx Abdulaziz Mansur, 2021; 282].

Dunyo olimlari bu voqeaga nisbatan o‘z qarashlarini turlicha ifodalab, fikr-mulohazalarini bildirganlar. Hatto aynan shu voqeaga bag‘ishlab “Me‘rojnoma”lar ham bitilganligiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek olimlaridan tadqiqotchi Jahongir Turdiyev aynan shu mavzuda fikr yuritar ekan, Islom tarixiga oid ishonchli manbalarning barchasida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning Me‘rojga ko‘tarilishlari bayon etilganligini uqtiradi. Dinimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etgan ushbu voqea yoritilgan asarlardan biri “Me‘rojnoma” bo‘lib, uning turkiy tildagi tarjimasini bizgacha yetib kelgan. Asar tilining ravonligi va yozuvining o‘ziga xosligi ajdodlarimiz madaniy merosi, o‘zbek tili tarixi hamda adabiyotimizni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. XV-XVI asrlarning nodir namunasi hisoblangan turkiy tildagi “Me‘rojnoma” asarining fanda ikki qo‘lyozmasi ma‘lum. Ularning biri uyg‘ur yozuvida, ikkinchisi arab xatida bitilgan. Uyg‘ur harfli qo‘lyozma hozirgi kunda Parijda Fransiya milliy kutubxonasida Suppl. Turc. 190 ko‘rsatkichi ostida saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozma “Me‘rojnoma” hamda Farididdin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo” asarlaridan iborat. Qo‘lyozmaning 1-69-sahifalari “Me‘rojnoma”, 70-264-sahifalari esa “Tazkiratu-l-avliyo” asarini o‘z ichiga oladi. Uyg‘ur yozuvli bu qo‘lyozma hijriy 840- melodi (1436-1437) - yili Hirotda Abu Malik baxshi tomonidan ko‘chirilgan [Turdiyev, 2020; 240]. Tadqiqotchi Turdiyevning xabar berishicha, arab harfida bitilgan qo‘lyozma Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih fondida 2848 ko‘rsatkichi ostida saqlanmoqda. “Me‘rojnoma” asari “Nahju-l-farodis” nomli kitobidan turkiy tilga o‘g‘irilgan bo‘lib, asarning hamd va na‘t qismidan so‘ng keladigan, tarjimon tomonidan keltirilgan quyidagi jumlar bayon etiladi: Emdi bilgil-kim, bu kitabni ati “Merajnama” turur. “Nahj ul-faradis” atliq kitabdin turk tiliga evurduk. Kop kisilarga fayda teksun tep, Ta’ri ta’alani’ tavfiqi birla tamam bitilip, xalayiqni’ ko‘li koziga sirin korungay [Courteille, 1882; 840]. Olim shu o‘rinda “Me‘rojnoma” tarjima qilingan “Nahju-l-farodis” forscha yozilganligini, balki, arabchadan tarjima qilinganligini taxmin qiladi, biroq asarda keltirilgan hadis va oyatlar aynan arabcha ekanligini e’tirof etadi. Shuningdek, jannat va do‘zax sayohati faslining boshidagi hadisning arabcha matni xattotning e’tiborsizligi natijasida tushirib qoldirilganligini, turkiy mutarjim ham bu hadisning forchasini keltirishni lozim deb topmay, “forscha yozildi” qaydini keltirib qisqartirganligini e’tirof etadi [Eckmann, 2003; 47]. Tadqiqotchi taxminiga ko‘ra “Me‘rojnoma” asari arabchadan fors tiliga tarjima etilgan. “Me‘rojnoma”ga asos bo‘lgan forscha “Nahju-l-farodis” asari hamda bu asarning arab tilidagi nusxasi bugunga qadar topilgani yo‘q. Olim ushbu asarning Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida Yangi Jomiy-784 raqami bilan qayd etilganligi va TDK tarafidan Y. A. Eckmann so‘zboshisi bilan boshlanadigan nashr Mahmud bin Ali as-Saroyi al-Kerdoriy (Kerdorlik Mahmud) qalamiga mansub

bo'lgan "Nahju-l-farodis"ning I bob, 7- va 8- bo'limlari Me'roj hodisasini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [Sertkaya, 1977; 12]. Rus olimi S. Malov ham aynan shu mavzuga qiziqib o'rganganligi, biroq yanglish fikr bildirganligi ma'lum: " "Me'rojnom" - "Jannat manzaralari" asarining tarjimasidir. Bu o'sha Marjoniy o'zining "Qozon va Bulg'or tarixi"ida aytib o'tgan, muallifi Ali o'g'li Mahmud Bulg'oriy (XIV asr) bo'lgan "Me'rojnom" emasmikin?" [Malov, 1951; 96]. Oradan ko'p yillar o'tib, bu borada tadqiqot o'tkazgan turkolog olim E. N. Najipning xulosalari haqiqatga yaqin. U Malovning yanglish fikrlariga qarshi chiqqan holda o'zining mushohadalarini asoslab, tili va tuzilishi, yozilgan davri va hajmi jihatdan farq qiluvchi bir nomdagi ikki asarni adashtirish holatlari yuzaga kelganligini aytib o'tgan [Nadjip, 2007; 265].

Fariddin Attor hayotda ko'p bora qiyinchilik va talon-tarojlarga duch kelgan, qismatning og'ir sinovlari, larzalarini boshdan kechirgan, xotirjam yashash imkoniyati unda juda oz bo'lishiga qaramay, uning ijodiyoti baribir samarali kechgan. U har tomonlama, chuqur ahamiyatga ega talay asarlarni kelajak avlodlarga abadiy meros qilib qoldirgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkiratush-shuaro" asarida Attor asarlarining umumiy hajmini ikki yuz ellik ming baytga yaqin, deb ko'rsatgani ma'lum. U "Me'rojnom" asarida Payg'ambar Muhammad alayhissalomning Buroqqa minib, yettinchi osmonga chiqqanlari va u yerda Allohning jamoliga muyassar bo'lganlari haqidagi Me'roj voqeasini bayon qiladi [Samarqandiy, 1987; 7]. O'zbek olimlaridan Qosimjon Sodiqov qadimgi turkiy yodgorliklar tilini o'rganar ekan, XIV asr turkiy nasr namunalariidan biri Mahmud ibn Ali ibn as-Saroyi qalamiga mansub bo'lgan "Nahju-l-farodis" asarining 1357-1358 - yillarda Oltin O'rdaning poytaxti Saroy shahrida bitilganligini, qo'lyozma nusxalari Istanbul, Qrim, Qozon va Sankt-Peterburgda saqlanib kelayotganligini, har qaysisi o'n bo'limdan iborat bo'lgan to'rt bobdan tashkil topganligini, muallif asarning har bir bo'limini arab tilida keltirilgan hadis bilan boshlaganligini, unda muqaddas Islom dinining qonun-qoidalari, musulmonlik farzlari haqida ma'lumot beruvchi diniy axloqiy mazmundagi asar bo'lishiga qaramasdan, etnografik va tarixiy ma'lumotlarga boyligi haqida ma'lumot beradi [Sodiqov, 2006; 21]. Islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomning Me'rojga ko'tarilganliklari haqidagi barcha asarlarda deyarli bir xil ma'lumotlar keltiriladi. Arab, fors, turkiy tildagi manbalarda bu voqea alohida ehtirom bilan tilga olinadi. 1858 - yilda Namanganda tug'ilib, axloqiy-ta'limiy, diniy-ma'rifiy mavzularda barakali ijod qilgan olim va mudarris Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning ham bu borada tinimsiz mehnat qilganligi, aynan shu mavzuni batafsil yoritib beruvchi mukammal asar yozganligi tarixdan ma'lum. Asar 1895 - yilda muallifning qo'lyozmasi asosida bitilgan bo'lib, hozirda uning Jiydakapa qishlog'idagi uy muzeyida saqlanib kelmoqda. "Mavludi sharif" Payg'ambar Muhammad alayhissalomning mavludlari haqida o'zbek tilida yozilgan yagona she'riy doston hisoblanadi. Kitobda Me'roj kechasi bayoni uchun alohida bir katta bob ajratilgan.

### **TADQIQOT METODLARI**

Mazkur tadqiqot metodlari bevosita tarixiy, badiiy hamda qiyosiy tahlillardan iborat. Jumladan, XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, xususan, Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Dog'iy, Suhayliy adabiy merosiga oid manbalarni o'rganish, ularning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilash, ijodidagi an'ana va yangilanish tamoyillarini aniqlashdan iborat. XX asr

boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari hayoti va adabiy merosiga oid manbalarni jamlab, ilmiy qimmatini belgilash; mazkur adabiy harakatchilikka doir manbalar, arxiv va esdalik materiallari, davriy nashrlardagi adabiy merosi tahlili asosida ularning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini baholash; o'rganilayotgan shoirlar merosining mavzu ko'lami va janr xususiyatlarini aniqlash; adabiy harakatchilik namoyandalari ijodida mumtoz she'riyat an'analari va novatorlikning namoyon bo'lishidagi adabiy-estetik tamoyillarni yoritish; adabiy harakatchilikning boshqa adabiy muhitlardan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosalar chiqarishdan iborat. Tadqiqot ob'yekti sifatida Xilvatiy asarlarining joriy nashrlari, qo'lyozma va toshbosma bayozlari, shuningdek, vaqtli matbuotdagi ular adabiy merosiga doir maqolalar tanlab olindi.

Shuningdek, islom dini Payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ning Me'rojga ko'tarilganliklari xususida shu kungacha bitilgan manbalar qiyosiy metod asosida o'rganilgan. Jumladan, arab olimlaridan Imom Ja'far Barzanjiy qalamiga mansub bo'lgan dastlabki diniy manbalardan biri "Iqd ul-javhar fiy mavlid an-Nabiy al-azhar" hamda o'zbek tilida bitilgan "Mavludi sharif" asarlarini qiyoslaganda ancha farq seziladi. Barzanjiy kitobining ikkita mashhur sharhi bor. Kitobga Misrda molikiylar muftiysi bo'lgan Muhammad ibn Ahmad Alish "al-Qavl ul-munjiy a'lo mavlid al-Barzanjiy" degan sharhni 1269-hijriy yilda Rabi' us-soniy oyida yozib tugatgan. Sal keyinroq esa, ya'ni 1279-yilda Sha'bon oyida Ja'far al-Barzanjiyning avlodidan bo'lmish, Madinai munavvarada Shofi'iylik muftiysi bo'lgan Ja'far ibn Ismoil ibn Sayyid Zaynuddin ibn Sayyid Ja'far al-Barzanjiy degan zot "al-Kavkab al-anvar a'lo Iqd al-javhar" nomli katta sharh yozgan. Bu ikki sharh ham Misrda 1310-yilda "Al-Maymaniyya" matbaasida nashr etilgan. Ayrim olimlar Xilvatiyning asari Barzanjiy asarining tarjimasini deb baho berganlar. Biroq bu fikr noto'g'ri ekanligini Xilvatiyning avlodlaridan bo'lgan adabiyotshunos olimi Ozoda Boltaboyeva ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu asar aynan arab tilidan tarjima emas, balki yaxlit, mukammal asardir.

Mulla Yo'ldosh Xilvatiy ustozining Langariydan shu mavzuda asar yozish haqidagi vasiyatini eshitgach, tushida islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomni ko'radi va 1895-yilda mazkur asarni yozishga kirishadi. Asarlarni o'zaro taqqoslaganimizda Xilvatiyning tili ravonligini, badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardan keng foydalanganligini, voqealarni aniq va ravshan, qisqa va lo'nda, o'quvchilarga tushunarli qilib ifodalaganligini, har bir voqea bayonida kichik hikoyalar keltirganligini ko'ramiz.

## **NATIJAR VA MUNOZARA**

Turkiy Me'rojnoma'larni o'rganishda rus olimi S. Malov, turk olimlari Emir Nadjip, Sertakaya, Osman Fikrilarining olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalarini qiyosiy tahlil qilinganda ayrim xatoliklar, yanglish fikrlar bildirilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu borada chuqur izlanishlar olib borgan o'zbek olimlari Jahongir Turdiev hamda Qosimjon Sodiqovlarning mulohazalari aynan haqiqatga yaqin ekanligi tarixiy, badiiy, qiyoslash metodlari orqali aniqlangan.

Islom tarixida keyingi davrlarda vujudga kelgan adabiyotlarda ham bu mavzu qayta-qayta tilga olinadi. Jumladan, Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf hazratlarining "Hadis va hayot" nomli asarlarida quyidagi fikrlarga duch kelamiz: Isro hodisasi islom da'vatining eng og'ir va mashaqqatli davrida sodir bo'ldi. Bu vaqtda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va u kishiga iymon keltirgan musulmonlarga

kuchli tazyiq o'tkazilardi. Zero musulmonlarni mushriklar zulmidan himoya qiluvchi Abu Tolib va Xadiyja binti Xuvaylid onamiz ham vafot etib ketishgandi. Shunday qiyin va mahzunli bir damda Isro va Me'roj kechasi – Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Alloh taolo huzuriga chiqishlari sodir bo'ldi. Bu narsa u zotdagi g'am-tashvishni ketkazish, da'vat yo'lida sobitqadam bo'lish, qalbg'a surur bag'ishlash uchun tasalli berish edi. Me'roj Hazrat Payg'ambarimizga berilgan ulug'mo'jizalardan biridir. Boshqa biror Payg'ambarga bunday ulug'maqom berilmagan. Me'roj voqeasiga insonning aqli yetmaydi. Uning zamon, makon va masofa kabi tushunchalarni anglatishga har qanday qalam ojiz. Bu hodisa ba'zi Hanafiy ulamolarimizning tahqiq qilishlaricha, hijratdan bir yarim yil oldin, Ramazon oyining o'n yettinchi kuni sodir bo'lgan [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008; 12]. Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, 27-rajab Me'roj oyidir. Rasuli akramning Me'roj hodisalari hijratdan bir yarim yil, ya'ni o'n to'qqiz oy avval bo'lib o'tgan. Ko'pchilik eski roviylar Me'rojning hijratdan bir yil yoki o'n sakkiz oy oldin ro'y berganini aytishadi. Qur'oni karimning ifodasiga ko'ra, Me'roj bilan hijrat orasidagi vaqt uzoq emas, Me'rojdan so'ng hijrat ham yaqinlashib qolgan edi [Ko'nrapa, 1995; 127]. Me'roj ba'zi ma'lumotlarga ko'ra hijratdan uch, ayrim rivoyatlarga ko'ra esa bir yarim yil oldin sodir bo'lgandir [Keski o'g'li, 1997; 47].

Shayx Akbarobodiy o'zining "Nodirul me'roji turkiy" asarida Isro va Me'roj voqeasi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Va ani (Me'rojni) voqe' bo'lg'on vaqtida ham ixtilof etgandurlar. Va ulamolarni ko'blari Me'roj rabi'ul avval oyida, Payg'ambarlikning o'n ikkinchi yilida voqe' bo'lg'ondur deyurlar. Va ba'zilar ayturlar, Me'roj hijratdin bir yil-u besh oy burun erdi. Bu rivoyatga qaraganda, shul oyda voqe' bo'lsa kerak. Va bir qavlda rajab oyining yigirma yettinchisida voqe' bo'lg'ondur va ba'zilar Payg'ambarlikning beshinchi yilida voqe' bo'lg'ondur deyurlar" [Akbarobodiy, 1995; 29].

Safiyurrahmon Muborakfuriy "Ar-rahiyqul maxtum" kitobida "Isro va Me'roj" voqeasi qachon sodir bo'lgani to'g'risida aytilgan quyidagi olti xil qarashni keltirgan:

1. Isro Alloh taolo u zotni nubuvvatga musharraf etgan yili bo'lgan.
2. Payg'ambar bo'lganlaridan besh yil keyin bo'lgan.
3. Nubuvvatning o'ninchi yili rajab oyining 27-kechasi bo'lgan.
4. Hijratdan o'n olti oy oldin nubuvvatning 12-yili ramazon oyida bo'lgan.
5. Hijratdan bir yilu ikki oy oldin nubuvvatning 13-yilida muharram oyida bo'lgan.
6. Hijratdan bir yil oldin nubuvvatning 13-yilida robi'ul avval oyida bo'lgan.

Keyin so'zida davom etib, Isro surasida Isro qissasi bitta oyatda zikr qilingani, so'ngra Bani Isroil va ularning buzg'unchiliklari haqida so'z yuritilgani, Qur'onning eng to'g'ri yo'lga hidoyat qilishi haqidagi xabar berilgani hamda bu oyatlarning oralaridagi bog'liqliklar va ularning hikmatlari haqida atroflicha so'z yuritib, oxirida "Ushbu hikmatlarga ko'ra Isro birinchi "Aqaba bay'ati"dan salgina oldin yoki ikki "Aqaba bay'at"larining orasida bo'lgan", - degan [Abdurahim, 2012; 174].

Me'roj kechasi Rasuli akramning qayerda bo'lganlari ham ixtilofli masaladir. "Sahihayn"dagi Buxoriy va Muslim rivoyatiga ko'ra, Rasuli akram Harami sharifda "Xatiym" deb atalgan joyda edilar (Xatiym Ka'baning ta'miri davomida ochiqda qolgan joy edi. Quraysh peshvolari bu yerda yotib qolishni odat qilishgan. Rasuli akram ham ba'zan shu yerda yotib qolardilar). Boshqa bir rivoyatga ko'ra, bu paytda

Rasuli Akram Ummu Honiy uyida bo‘lganlar. (Ummu Honiy Abu Tolibning qizidir. Uning uyi Abu Tolib mahallasida edi) [Ko‘nrapa, 1995; 128]. “Mavludi sharif”da ham Xilvatiy bu fikrni tasdiqlaydi [Xilvatiy, 2021; 92]. Muhaddislar rivoyat qilishlaricha, Nabiy sollallohu alayhi vasallam xufton namozidan so‘ng Ummu Honiy binti Abu Tolibning uyida uxlab yotganlarida, Isro hodisasi boshlandi. O‘sha kechasi Buroq nomli hayvonga minib, Baytul Maqdisga bordilar. So‘ngra u yerdagi katta xarsang tosh ustida turganlarida Me‘rojga ko‘tarildilar. Hozirda o‘sha tosh ustiga qubba – gumbaz qurilgan, dumaloq bino shaklidagi suratlari butun dunyoga tarqatilgan. Ko‘pchilik bilmasdan, uni Masjidul Aqso deb tushunadilar [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2013; 185].

Me‘roj voqeasi “Sahihul Buxoriy” va “Sahihul Muslim” kitoblarida haqqoniy bayon etilgan. Qozi Iyoz ham o‘zining “Shifo” asarida bu haqda alohida to‘xtalib o‘tgan. Anas ibn Molikdan rivoyat qilinishicha, Rasululloh Me‘roj voqearini shunday bayon etganlar: “Menga eshakdan kattaroq, xachirdan kichikroq qadami ildam bir ulov keltirildi. Uni minib Baytul maqdisga bordim. Ulovni Payg‘ambarlarning ulovlari turadigan joyga bog‘lab, masjidida ikki rakat namoz o‘qib chiqdim. Jabroil menga bir idishda may bilan ikkinchi idishda sut keltirdi. Men sutni tanladim. “Tabiiy narsani topding”, - dedi Jabroil. Shundan keyin osmonga ko‘tarildik [Huzariy, 1992; 65].

Sulaymon Boqirg‘oniy “Me‘rojnoma” asarida juda ko‘p qadimiy sof turkiy so‘zlarni qo‘llaganligi tarixdan ma‘lum. Bu asar XIX asr o‘rtalarida ko‘chirilgan. “Me‘rojnoma” avvalida Allohga maqtoqlar keltiriladi va uning sifatlari aytiladi: unga nisbatan “Bir-u bar”, ya‘ni “Yakkayu-yagona”, “Erklig”, ya‘ni “Qodir”, “Ko‘rkluk”, ya‘ni “Go‘zal” so‘zlari qo‘llanilgan. Yakkayu-yagona, qodir, go‘zal Alloh taolo bizga nazar qildi, Mustafoni, ya‘ni Muhammad (s.a.v.)ni yuborib, bizni unga ummat qildi. Bu ishi bilan bizlarga ko‘p marhamatlar qildi, - degan fikrlarni keltiradi. Alloh taolo o‘z nuridan Rasuli akramni yaratdi va unga “Habib” deb nom qo‘ydi,- degan mulohazalarni bayon etadi [Boqirg‘oniy, 2013].

Zamonasining mashhur faylasuf olimlaridan Ahmad Yassaviy o‘zini faqirlar zumrasiga kiritadi va bu bilan faxrlanadi. Faqir esa dunyoning asbobu ahvolidan hech narsaga ega bo‘lmagan, hech bir tama‘u da‘vosi bo‘lmagan kishi, faqirlarning Olloh diydoridan o‘zga talablari yo‘q. Faqirlikni insoniylik mohiyati deb bilib, g‘aniylik, egalikni Ollohning sifati hisoblaydilar. “Devoni hikmat”da yoziladiki, Yassaviy ruhi hali u tug‘ilmasdan Ilohga oshiq edi. Chunki hazrati Payg‘ambar alayhissalom Me‘roj tunida ko‘kda faqr haykalini ko‘rdilar (nur shaklida). Bu mening ruhim edi, deb yozadi Ahmad Yassaviy:

Me‘roj uzra haq Mustafo ruhim ko‘rdi [Yassaviy, 2013].

O‘zbek tarjimonlaridan Dilfuza Sarvarova “Muqaddas oylar va mustajob duolar” kitobida bu ikki kechaning bir-biridan farqini quyidagicha ta‘riflaydi: Isro – Payg‘ambarimizning (s.a.v.) Makkadan Quddusga, ya‘ni masjidi Haromdan masjidi Aqsoga qilgan tunggi sayrlari. Me‘roj esa – masjidi Aqsodan osmonga ko‘tarilishlari. Me‘rojda Alloh taolo tomonidan qilingan hukmlar juda ulug‘dir. Bu hukmlar insonlarni diyonatli, yaxshi xulqli, mehr-muruvvatli, halol-pok bo‘lishga hamda harom va nopoklikning turli ko‘rinishlaridan hazar qilishga chorlaydi [Sarvarova, 2005; 81]. Bu voqealarning hadislarda bayon etilishi bo‘yicha Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asari guvohlik beradi: Payg‘ambarimiz



kechani bir parchasida Masjidul Haromdin chiqib, Quddus shahridagi Masjidul Aqsoga kelganlari onglanadi. Endi bu oyat shu masalada qat'iy dalil bo'lganlikdan, Isroga inkor, ya'ni Masjidul Aqsoga kelish inkori iymonga muxolifdur. Ammo Me'roj deb "Masjidul Aqsodin osmon olamiga chiqqani aytilur. Bu esa hadis bilan sobit bo'lgan masaladur [Sog'unuy, 2007; 50].

Hadislarda keltirilishcha, "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: "Quraysh meni yolg'onchiga chiqargach, Hijrning ichida turdim. Shunda Alloh menga Baytul Maqdisni namoyon qildi. Unga qarab turgan holimda ularga uning belgilaridan xabar bera boshladim", - deyayotganlarini eshitganman" [Buxoriy, 2014; 155]. Bu voqea Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Me'rojga chiqib kelganlaridan so'ng, mushriklar u kishini inkor qilib, yolg'onchiga chiqarganlarida sodir bo'lgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Hijrning ichida turib mushriklarga Allohning yordami bilan Baytul Maqdisni tavsiflab berganlar.

Turk adibi Ahmad Lutfiy Qozonchining "Saodat asri qissalari" asarida mazkur kecha Rajab oyining yigirma oltinchi kunidan yigirma yettinchi kuniga o'tar kechasi sodir bo'lganligi aytiladi. Rasululloh (s.a.v.) "Me'roj" nomi berilgan ishga binoan ko'kka yuksala boshladilar. Payg'ambarimiz (a.s.) bu haqda hikoya qilar ekanlar: "Men Me'rojdan go'zalroq, ko'z qamashtiradigan g'aroyibroq narsani ko'rmadim. Sizlardan vafot etadigan kimsalar uni ko'rishga muvaffaq bo'ladilar, o'lganlar unga tikilganlarida hayronu lol qoladilar", - degan edilar [Qozonchi, 2020; 58].

Payg'ambar Muhammad alayhissalom Jabroilni ikkinchi bor Me'roj kechasida ko'rganliklari, bu darajaga hech bir Payg'ambar, hech bir farishta yetmaganligi Adham Ibrohimning "Eng komil inson" asarida keltiriladi [Ibrohim o'g'li, 2022; 137].

She'riy asarlarda ham azaldan Me'roj mavzusiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, buyuk alloma Alisher Navoiy ijodida ham yaqqol ko'zga namoyon bo'lgan mavzulardan biri Me'roj kechasi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotchi olim Fayzulla Iskandarov bu haqida izlanishlar olib borib, kechani tasviri Navoiy tilidan o'zgacha mahorat bilan yoritilganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aynan shu kechada Yor vasliga yetishganliklaridan behad xursand bo'lganlar:

Bir kecha zulmatqa qolib koinot  
Mehr nihon o'ylaki aynul hayot.  
Garchi ul chashma nazardin qochib,  
Xizr ko'k uzra qatarotin sohib [Iskandarov, 2017; 164].

Tadqiqotchi shu o'rinda olim Muslihiddin Muhiddinovning mulohazalarini keltirib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, Navoiy osmon jismlarining intizorligini bayon etishdan oldin Rasululloh (s.a.v.) o'z ichki kechinmalari – Tangri bilan muloqot mujdasidan yuragi beorom, joni ichiga sig'may quvonishini ko'rsatgan:

Chunki nabiy mujdai jonon topib,  
Mujdai jonon chu topib, jon topib.  
Payki oni qo'ldabon otlon durub,  
Raxshini kelgan sori – o'q yondurub [Muhiddinov, 2005; 47].

Navoiyshunos olim Sayfiddin Rafiddinovning guvohlik berishicha, Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Me'roj kechasini izohlab, (Payg'ambarning) ko'zi o'ngu so'lga og'maganligini, o'z haddidan oshmaganligini, u (o'sha soatda)

Parvardigorning buyuk oyatlarini (ya'ni u zotning qudrati ilohiyasiga dalolat qiladigan juda ko'p alomatlarni) ko'rganligini bayon etadi [Rafiddinov, 2021; 129].

F.Iskandarov olib borgan tadqiqotlarning xulosalariga ko'ra buyuk o'zbek olimi Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda, Me'roj mavzusi Navoiyning eng sevgan mavzusidir. Chunki Navoiy ham, boshqa so'fiy yoki mutasavvuf shoirlar ham Payg'ambar Me'rojida tasavvuf g'oyalariga yaqin narsani va so'fiylarning ruh uruji (ko'tarilish), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo'lish g'oyasining isbotini ko'radilar [Komilov, 2005; 216].

Muhammad alayhissalom haqlarida yozilgan eng mukammal she'riy doston sanalgan "Mavludi sharif"da Me'roj kechasi batafsil bayon etiladi [Boltaboyeva, 2019].

Xilvatiy mazkur bobni "Muhammad sollallohu alayhi vassallamning Me'rojlarini bayoni" deb nomlaydi. Bob avvalida bir kecha Ul Zotning amakilarining qizi Ummu Honiy uyida ekanliklari aytiladi:

Bir kecha ul toyiri nuri oshyon,  
Bulbuli xushgo'yi rahmat guliston.

Bog'i rahmatning guli navrastasi  
Ham guli navrastai guldastasi.

Anbiyolar zumrasig'a toji sar,  
Charxi izzat avjida nuri qamar.

Ya'ni, mahbubi Xudovandi taol,  
Ul Muhammad Mustafo, nuri Jalol.

Ummu Honiy uyida yotgan edi,  
Nurridin bistar aro botgan edi [Xilvatiy, 2021; 92].

Shu kecha Jabrail alayhissalomga Yaratgandan amr bo'ladi. Unga jannatga borib, Buroq ismli otni topish, uni egarlab, Muhammad (s.a.v.)ni mindirgan holda arshi a'loni sayr qildirish vazifasi topshiriladi:

Jabrailg'a amr qildi Kirdigor:  
"Betavaqquf ushbu tun jannatga bor.

Bir murassa' toj ila nurdin kamar  
Ham Buroqe bodpoyu tez par.

Hullakim toru pudi nur erur,  
Kimga darbor aylasa, masrur erur.

Ushbu majmu'ni sarolab, soz etib  
Bor Habibim qoshig'a parvoz etib.

Anga yetkurgil payomim, yo Amin,  
Sayr qilsun bu kecha Arshi barin.

Lomakon ichra manga arzin desun,  
Ne'mati qurbi visolimni yesun" [Xilvatiy, 2021; 93].

Jabrail alayhissalom jannat tomon yo'l oladi va Buroqni qidirishga tushadi:  
Eltgali bu rang farmoni Jalil  
Ayladi parvoz ul dam Jabrail.

Turfatul ayn ichra jannatun Naim  
Bo'stonig'a borib bo'ldi muqim.

Hullau toju murassa'ni topib,  
Justujo' qildi Buroqni axtarib [Xilvatiy, 2021; 93].  
Lekin jannati Naimda yuz ming Buroq o'tlab yurganligini ko'rib, hayron bo'ladi.  
Bularning ichidan qaysi birini tanlashga boshi qotadi:  
Sabzazorig'a qadam qo'ydi hamon  
Ko'rdikim, yuz ming Buroq o'tlar ekan.

Ul Buroqlar ichra ko'rdi bir Buroq,  
Yemishidur sabzai dashti firoy [Xilvatiy, 2021; 93].  
Barcha otlar jannatda barra o'tlardan yeb, zilol suvlardan ichib yurardilar.  
Ularning orasida bittasi o't ham yemay, suv ham ichmay, xomush bo'lib, ko'zlariga  
yosh to'lib turardi:

O'zgalar o't o'tlashib, suv suvlashur,  
Izg'ishib, o'ynog'lashib, uyqulashur.

Bu alar ichra suv ichmas, o't yemas,  
O'tu suvg'a mayl qilmas, izg'imas.

Ko'zidin tinmay sirishki oqadur,  
Toqat etmay har tarafg'a boqadur.

Jonini hijron chayoni choqadur,  
Bag'rig'a har lahza o'tlar yoqadur [Xilvatiy, 2021; 94].

Jabrail uning yoniga kelib buning sababini so'raydi:

Ko'rub ul bechorani Ruhul amin  
Jonibiga qo'ydi shafqat maqdamin.

Jabrail aydi anga: "Ey bezabon,  
Manga o'z kayfiyating etgil bayon.

Nega o't yemay, suv ichmay yurasan,  
Yosh ila ikki ko'zung to'ldurasan?

Na sababdurkim bu yanglig‘ zorsan,  
Notavonu xastavu afgorsan?

O‘zga yo‘ldoshing hama shodob erur,  
O‘t bila, suv bila serob erur” [Xilvatiy, 2021; 94].

Buroq unga javoban qirq ming yildan beri shu jannatda yashashini, lekin hanuzgacha dili vayron ekanligini, bunga sabab esa qalbida Muhammad alayhissalomga nisbatan buyuk bir ilohiy tuyg‘u bo‘lib, unga tinchlik bermasligini, ul zotning vasliga yetmaguncha shu holat davom etishini aytadi. Zohiran makoni jannat bo‘lsada, botinan do‘zax azobida, hijron dardida kuyganligini bayon etib, tilga kiradi:

Dedi ul dam ul Buroqi notavon,  
Yoshini aylab iki ko‘zidin ravon:

“K-ey maloik ahlini Payg‘ambari,  
Barcha qudsiylar azizi, sarvari.

Qirq ming yil bo‘ldikim, hol ushbudur,  
Siz gumon etmangki, ahvol ushbudur.

Boisi shulkim, eshittim bir nido,  
“Yo Muhammad!”, deb nido qildi Xudo.

Chun qulog‘img‘a yetib ul nomi pok,  
Xanjari ishqida bag‘rim bo‘ldi chok.

Dam-badam ishqim o‘ti afzun bo‘lur,  
Diydadin qon yoshlarim Jayhun bo‘lur.

Ul zamondin to bu dam ovoraman,  
Sohibi ul nomi pok axtoraman.

Zohiran garchi makonimdur bihisht,  
Botinan do‘zax o‘tig‘a siyna tasht [Xilvatiy, 2021; 95].

Jabrail alayhissalom o‘sha uzoq kutilgan kun kelganligini, Rasululloh vasliga erishish nasib etganligini aytadi va uni qizil yoqut bilan egarlab, yerga tushadi:

Ya‘ni, Jabrail Amin arzi Buroq  
Eshitib dediki: “Ey zori firoq!

Shod bo‘lkim, bul kecha mahbubni,  
Ko‘nglung olg‘on dilbari marg‘ubni.

Vasliga lutfi Xudo vosil qilur,  
Harna maqsudingki bor hosil qilur [Xilvatiy, 2021; 96].

Ummu Honiy uyiga yetib kelganlarida Jabrail “Yo Muhammad, kirishga izn bormi?” deb so‘raydi. Bu kecha unutilmas kecha ekanligini, Yaratgan ul zotni Rizvon

bihishtiga, jannatga tashrif buyurishlarini, yetti osmonni sayr qilishlarini buyurganligini aytadi:

Ummu Honiy uyig‘a keldi yetib,  
-“Yo Muhammad!” – dedi ul ovoz etib, -

Kirgali bormu ijozat, yo Habib,  
Jurmu isyon dardig‘a hoziq tabib.

Haq salom aytti nihoyatdin fuzun  
Ham payomi haddu g‘oyatdin fuzun.

So‘ngra aydikim: “Habibim bu kecha,  
Nuri rahmatg‘a qaribim bu kecha.

Arshu Kursini tamosho aylasun,  
Yetti osmonni qadamjo aylasun” [Xilvatiy, 2021; 97].

Shu kecha barcha jannat eshiklari ochiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Buroq otiga minganlaricha sayr qilishga oshiqadilar. Avval masjidida Aqsoga qadam qo‘yadilar. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ushbu masjidida barcha Payg‘ambarlar davrasida imomlik qiladilar va ikki rakat namoz o‘qiydilar. So‘ng ular bilan vidolashib, Saxraning ustidan qaror topadilar. Ular uchib ketayotganlarida Saxra ham ortilaridan ergashadi, lekin unga “Senga ijozat yo‘q” degan amr bo‘ladi. Shu sababli turgan joyida muallaq qoladi.

Rasululloh alayhissalom tashriflaridan uch xil - oq, qizil, ko‘k gullar ochiladi va ular yodgorlik bo‘lib qoladi:

Terladilar ushbu yo‘lda ul uchav,  
Shoh, shotir ham Buroqi tezrav.

Har araqkim misli marjonu guhar,  
Ayladi paydo tani Xayrul bashar.

Andin oq gulning niholi bosh chiqib,  
Yashnadi bir soat o‘tmay ochilib.

Xo‘yilarkim Jabraildin bo‘ldi fosh,  
Sabz o‘lub naxli qizil gul chekti bosh.

Harnakim chiqdi Buroqdin ul zamon,  
Ul guli ra‘no ko‘kardi begumon.

Ushbu uch gul bul uchavdin yodgor,  
Jumlai ummatg‘a qoldi poydor [Xilvatiy, 2021; 101].

Charx avvaliga yetib kelganlarida Jabrail “Och eshik!” deya amr qiladi. Darbonlar eshiklarni ochib, gavhar sochadilar va “Marhabo yo nuri Haq” deya tavof qiladilar. Barcha farishtalar toatda bo‘ladilar va “Me’rojingiz qutlug‘ bo‘lsin” deya qarshi oladilar. Bu kechadan behad lutf olishlarini, bunday sharafga hech bir Payg‘ambar munosib ko‘rilmaganligini aytadilar:

Charxi avvalg‘a yetushub shul zamon,  
“Och eshik”, - deb Jabrail qildi fig‘on.

Anda darbonlar eshikni ochtilar,  
Mustafo boshig‘a gavhar sochtilar.

“Marhabo yo nuri Haq”, - deb qudsiyon  
Tavf qildilar Muhammadni ravon.

Ko‘rdilarkim, barchasi toatdadur,  
Bir farishta yo‘qki ul g‘aflatdadur [Xilvatiy, 2021; 101].

Shu tariqa Hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) yetti osmonni sayr etadilar. Qayerga borsalar, maloikalar ularni o‘zgacha hurmat-ehtirom bilan qarshilaydilar. Sidrada Jabrail va Buroq qolishlari lozimligini aytadilar. Shu ondayoq Rafrat paydo bo‘ladi va Rasululloh alayhissalom unga minib, sayrni davom ettiradilar. Oxiri na turish, na yurish, na makon, na zamon bo‘lmagan bir xilvat joyda to‘xtaydilar. Shu yerda ikki olam sarvari bilan diydorlashuv bo‘lib o‘tadi. Diydor chog‘i Alloh taolo shunday deydi:

So‘ngra aydi Haq Muhammadg‘a:  
Ayo Sarvari olam azizi du saro.

Bu kecha ul kechakim, har muddao  
San talab qilsang, Man aylarman ato [Xilvatiy, 2021; 105].

Shunda Rasulimiz alayhissalom Yaratganga ikki hadya keltirganliklarini aytadilar:

Sanga ikki hadya kelturdum bukun,  
Ey Hakimi oshkoru yoshirun.

Birisi o‘ksuk namozu toatim,  
Birisi jurmu gunohi ummatim [Xilvatiy, 2021; 106].

Alloh Taolo bu so‘zlarni eshitgach, hadyalarning ikkisini ham qabul qilganligini va ummatlarning gunohlaridan kechganligini aytadi:

Haq dedi: “Toatlaring qildim qabul,  
Ummating jurmini o‘ttim, yo Rasul.

Barcha ummatlarni rahmat ayladim,  
Manzilin gulzori jannat ayladim” [Xilvatiy, 2021; 107].

Shundan so‘ng Sidraga qaytadilar va Buroqqa minib, Saxra ustidan uchib o‘tib, Ummu Honiy uyiga keladilar. Ichkari kirganlarida eshik zanjiri ochilmaganligini, to‘shaklari sovumaganligini ko‘radilar. Tongga qadar yotmay, o‘tirmay toat-ibodat

qilib chiqadilar. Bomdod namozidan so'ng ona zamin uzra quyosh nurlari sochilgan payt tashqariga chiqadilar va bo'lgan voqeani sahobalariga yetkazadilar. Xabarni eshitgan sahobalar g'oyat shod bo'lib, ul zotni Me'roj bilan muborakbod etadilar:

Qissai Me'rojidin ashoblar,  
Shod bo'ldilar xo'b hama ahboblar.

Kimda gar bo'lsa adovatdin asar,  
Xira bo'ldi ta'bi anglab bu xabar [Xilvatiy, 2021; 109].

Xilvatiy Me'roj kechasi bilan bog'liq voqea bayoni so'ngida kitobxonlarni salavot aytishga da'vat qiladi:

Tammat o'ldi qissai Me'roji Nur,  
Lutf qildi hazrati Rabbi G'afur.

Eyki, istarsiz hama g'amdin najot  
Aytingiz Payg'ambarimga as-salot [Xilvatiy, 2021; 109].

### **XULOSA**

Islom dini tarixida o'ziga xos o'rin tutgan Isro va Me'roj kechasi haqida turli olimlarning fikrlari bilan tanishdik. Jumladan, arab tarixchisi Imom Ja'far Barzanjiy, turk olimlari Emir Nadjip, Sertakaya, Ahmad Lutfiy Qozonchi, rus olimi Sergey Malov, o'zbek tarixchi va adabiyotshunos olimlari Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Sulaymon Boqirg'oniy, Fariddin Attor, Mulla Yo'ldosh Xilvatiy, qolaversa, zamondosh olimlarimizdan Najmiddin Komilov, Muslihiddin Muhiddinov, Jahongir Turdiyev, Fayzulla Iskandarov, Qosimjon Sodiqov, tarjimon Dilfuza Sarvarova, namanganlik olima Ozoda Boltaboyevalarning fikr-mulohazalarini o'rgandik.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ma'rifatparvar jadid olimlar safidan joy olgan hamyurtimiz Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning Isro va Me'roj kechasi bayoni to'g'risidagi fikrlari haqiqatga yaqindir. Asar tili, badiiy xususiyatlarining o'ziga xosligi shoir mahorati yuksakligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan tarixiy manbalarni topish, qadimgi o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini chuqur tahlil qilish, bizgacha yetib kelgan nodir yodgorliklarni har jihatdan mukammal o'rganish hozirgi zamon adabiyotshunoslari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan sanaladi. Namangan adabiy muhitida yashab ijod etgan buyuk olimlar, tarixchilar, ma'rifatparvar jadidlarning nomlari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo tarixida abadiy muhrlanishi uchun ularning o'lmas meroslarini ko'z qorachig'idek avaylab-asrashimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. M.Aminov O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.4-jild, Toshkent, 2004-yil, 258-b.
2. Shayx Abdulaziz Mansur "Qur'oni Karim" Qayta ishlangan nashri, Toshkent, 2021.
- 3.Jahongir Turdiyev. "Me'rojnoma" asarining turkiy tildagi tarjimasi. Society and innovations Special issue -1, №01.2020.
4. Courteille, Pavet de.1882. Miradj-nameh, Recit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Compose A.H. 840/1436-1437. Amsterdam: Philo Press.
5. Eckmann, Janos 2003. Harezmi, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. Ankara.
6. Sertkaya, Osman Fikri.1977. Islami Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir

Bakis. Bocum.

7. Malov Sergey. 1951. "Pamyatniki drevnetyurkskoy pis'mennosti" teksti i issledovaniya. Moskva.
8. Nadjip. 2007. Emir. "Regioni i etapi formirovaniya tyurkskix pis'mennix yazikov i literatur". Turkestan.
9. Q. Sodiqov. 2006. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. Toshkent.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 5-juz Namoz. Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 2008-y. 12-bet.
11. Zakoi Ko'nrapa. Payg'ambarimiz va asharai mubashshara. Birinchi kitob. Makka davri. Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti. 1995-y. 127-bet.
12. Usmon Keski o'g'li. Siyari Nabiy. Anqara: 1997-y. 47-bet.
13. Akbarabodiy. Me'rojnama. Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti. 1995-y. 29-bet.
14. Abdulqodir Abdurahim. E'tiqod durdonalari "Bad'ul amoliy" sharhi. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti. 2012-y. 174-bet.
15. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi sharif. Toshkent: "Qamar media". 2021- y. 92-105- bet.
16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 19-juz. Olamlarga rahmat Payg'ambar. Toshkent: "Hilol-Nashr" 2013-y. 185-bet.
17. Muhammad Huzariy. Nurul yaqin. Toshkent: Cho'lpon-Kamalak. 1992-y. 65-67-betlar.
18. D.Sarvarova. Muqaddas oylar va mustajob duolar. Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti. 2005-y. 81-bet.
19. Alixonto'ra Sog'uniiy. Tarixi Muhammadiy. Toshkent, 2007- y, 50-bet.
20. Fayzulla Iskandarov, Me'roj kechasining badiiy tasviri. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik jurnali. 2017- yil, 164-bet.
21. Muslihiddin Muhiddinov. Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: 2005; 47-bet.
22. Najmiddin Komilov. Xizr chashmasi. Toshkent. 2005-yil, 216-bet.
23. Oltin silsila: 5-juz: Sahihul Buxoriy. Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti. 2014-y. 155-bet.
24. Sulaymon Boqirg'oniiy. Hikmatlar, nashrga tayyorlovchi E.Ochilov. Toshkent. 2013-y.
25. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri qissalari, 2022. 58-bet.
26. Adham Ibrohim o'g'li. Eng komil inson. Toshkent, 2022 -yil, 137-bet.
27. Sayfiddin Rafiddinov. Istiqlol davri o'zbek Navoiyshunosligi. Toshkent, 2021-y, 129-bet.
28. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar, Toshkent. 2013-yil.
29. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkiratush-shuaro.
30. O.Boltaboyeva. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik. (PhD) Dissertatsiya, Toshkent, 2019.

## REFERENCES

1. M.Aminov National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 1. Tashkent, 2004.
2. Sheikh Abdulaziz Mansur. Holy Kuran. Revised edition. Tashkent, 2021.
3. Jahongir Turdiyev. Turkish translation of "Merajname". Society and innovations Special issue-1, 2020.
4. Courteille, Pavet de. 1882. Miradnameh, Recit de l'Ascension de Mohamet au Ciel Compose A.H. 840/1436-1437. Amsterdam: Philo Press.
5. Eckmann, Janos. 2003. Research on Harezmi, Kipchak and Chigatai Turkish. Ankara.
6. Sertakaya, Osman Fikri. 1977. Collected Works of Uygur Letters of the Islamic Era View.
7. Malov Sergey. 1951. Monuments of ancient Turkish writing texts and research. Moscow.
8. Najib Emir. 2007. Regions and stages of the formation of the Turkish. Written languages and literatures. Turkestan.
9. Q. Sadikov. 2006. The language of Turkic written monuments: the emergence and revival of the literary language. Tashkent.
10. Sheikh Muhammed Sadik Muhammed Yusuf. Hadith and life. Chapter 5 prayer. Tashkent. 2008. Page 12.
11. Zakoi Konrapa. Propet and asharai mubashshara. The first book. Tashkent. 1995. Page 127-128.
12. Son of Usman Keski. Siyari Nabi. Ankara. 1997. Page 47.
13. Akbarabadi. The ceremony. Tashkent. 1995. Page 29.
14. Abdulkadir Abdurahim. Review of Bad'ul Amoli masterpieces of faith. Tashkent. 2012. Page 174.
15. Mulla Yuldash Khilvati. Mavludi sharif. Tashkent. 2021.



16. Sheikh Muhammed Sadik Muhammed Yusuf. Hadith and life. Chapter 19 prayer. Tashkent.2013. Page 185.
17. Muhammed Huzari. Nurul is close. Tashkent.1992. Page 65-67.
18. D.Sarvarova. Holy months and mustajab prayers. Tashkent.2005. Page 81.
19. Alikhantura Soguni. The history is Muhammedi. Tashkent.2007. Page 50.
20. Fayzulla Iskandarov. Artistic depiction of the Night of Miraj. Foreign languages in Uzbekistan – scientific-metodical magazine.2017. Page 164.
21. Muslihiddin Muhiddinov. A Perfect person is the ideal of literature Tashkent.2005. Page 47.
22. Najmiddin Komilov. Khizr spring. Tashkent.2005. Page 216.
23. Bukhari. Golden series: Part 5. Sahihul Bukhari. Tashkent.2014. Page 155.
24. Suleyman Bakirgani. Proverbs, prepared for publication by E. Ochilov. Tashkent.2013.
25. Ahmad Lutfi Kazanchi. Tales of the Age of Happiness. Page 58.
26. Adham son Abraham. The most perfect person. Tashkent.2022. Page 137.
27. Sayfiddin Rafiddinov. Uzbek Navoi studies of the period of independence. Tashkent.2021. Page 129.
28. Ahmed Yassavi. Proverbs. Tashkent.2013.
29. Davlatshah Samarkandi. Tazkiratush-shuaro.
30. O. Boltaboyeva. Literary movement in Namangan at the beginning of the 20 th century. (Phd) Dissertation. Tashkent.2019.